



PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI



5-6 oktabr

Buxoro – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI KAFEDRASI**

**PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZMNI
BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI
YO‘NALISHLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari
2021 yil 5-6 oktabr**

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В
ПОСТПАНДЕМИЧЕСКИЙ ПЕРИОД**

**сборник тезисов
Республиканская научно-практическая конференция
5-6 октября 2021 года**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021**

bilan juda mashhur bo'lgan Moxi Xossa sanatoriyasi oxirgi chorak yil davomida xizmatlar sifatining pastligi, moddiy texnik bazasining yangilanmasligi, targ'ibot – tashviqot ishlarining cheklanganligi kabi omillar tufayli xalqaro va respublika darajasidagi mavqeidan ajralmoqda. Bunda qiyidagi taklif va chora – tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan ushbu tarmoqdagi boshqaruvda innovatsion yangilanish va modernizatsiya tadbirlari amalga oshirish, tashqi va ichki targ'ibot – tashviqot ishlarini zamonaviy talablar asosida yangidan yo'lga qo'yish, davlat sherikchilik asosida xususiy hamda xorijiy sarmoyador tadbirkorlarni yangi loyihalarga jalb etish,

Ikkinchidan jahondagi sanatoriya – sog'lomlashtirish muassasalari orasida Moxi Xossa sanatoriyasi brendini tanitish va undagi tibbiy va boshqa xizmatlarni jahon standartlari darajasida taqdim etish, Uchinchidan viloyat aholisi va bolalar salomatligini saqlash sohasida yangi ixtisoslashgan sanatoriyalar hamda bolalar sog'lomlashtirish sihatgohlarini tashkil etish.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi viloyatga sayyohlarning yangi va maqsadli oqimini kengaytirishga xizmat qilib, pirovard natijada valyuta tushumini ko'payishiga hamda shu bilan birga ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni ijobiy hal etishda turizmni va u bilan bog'liq tarmoqlarning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

ПРИНЦИПЫ БАНКОВСКОГО МОНИТОРИНГА

Хамроев Шерзод докторант ТГЭУ

Мониторинг – это ряд действий, направленных на изучение объекта путем непрерывного надзора за его состоянием и проведением дальнейшего анализа. Под банковским мониторингом понимают «систему наблюдения за ключевыми параметрами банковского сектора экономики и анализа информации о его состоянии с целью выявления тенденций, прогноза будущего развития с учетом внутренней и внешней среды и предотвращения кризисных ситуаций». Основная цель банковского мониторинга – это своевременное выявление нарушения и трудностей в функционировании коммерческого банка или банковской системы в целом с целью нормализации финансового положения и поддержания стабильности.

Необходимость банковского мониторинга обусловлена, во-первых, особой ролью банка в хозяйственной жизни общества. Банковский сектор оказывает воздействие на общую экономическую ситуацию, за счет влияния на объем и структуру денежной массы, будучи посредником между хозяйствующими субъектами. Во-вторых, банковский мониторинг позволяет на ранней стадии предотвратить возникающие проблемы в банковском сектор, благодаря чему удается с большей вероятностью сохранить рыночной равновесие. Мониторинг финансового состояния осуществляется центральным банком за счет проведения пруденциального надзора, то есть надзора, основанного на проверке форм отчетности, предоставляемых кредитными организациями. То есть, мониторинг выступает составной частью банковского надзора.

Банковский надзор подразумевает ряд следующих основных и вспомогательных действий:

Основные действия:

- оценка финансового состояния банка;
- контроль за соблюдением законодательных норм кредитными организациями;
- осуществление соответствующих мер предотвращения в случае нарушения предусмотренных норм и правил.

Вспомогательные действия:

- издание процедурных норм функционирования организации в письменной форме;
- определение уровней рисков, допустимых для банков.

Банковский мониторинг представляет собой современный методологический инструмент, который может быть эффективно использован в процессе регулирования и надзора, а также в ходе реализации других функций Центрального банка. Подобное определение требует четкого разведения функций банковского мониторинга, с одной стороны, и банковского регулирования и надзора, с другой.

Регулирование банковской деятельности осуществляется посредством установления законодательных норм и требований к кредитным организациям, соблюдение которых обеспечивается системой мер в виде банковского надзора. Банковский мониторинг не подменяет банковского регулирования и надзора и не поглощает его. В свою очередь, банковский мониторинг (наряду, например, с налоговым мониторингом) представляет собой

разновидность финансового мониторинга как комплекса мероприятий по анализу данных о финансовых операциях в банковской сфере, а также мероприятий по проверке информации в соответствии с законодательством.

Сущность банковского мониторинга не изменяется в условиях цифровой экономики, однако, существенно меняется технологический инструментарий его осуществления, который несет в себе снижение транзакционных издержек и одновременно нарастание рисков, связанных с особенностями реализации цифровых технологий. В структуре банковского мониторинга можно выделить пять основных элементов, позволяющих понять его сущность:

- 1) наблюдение;
- 2) оценка финансового состояния коммерческих банков;
- 3) прогноз состояния кредитных организаций;
- 4) оценка прогнозируемого финансового состояния банков;
- 5) принятие управленческих решений по регулированию деятельности кредитных организаций.

Таким образом, целью банковского мониторинга является наблюдение не только за финансовой устойчивостью отдельных банков и банковской системы в целом, но и за ее совершенствованием. Это необходимо в целях обеспечения банковской безопасности, представляющей собой стержень экономической безопасности государства. Другими словами, банковский мониторинг выступает в качестве метода управления. При этом объектом банковского мониторинга является не только внутренняя (собственно банки и банковская система в целом), но и внешняя среда банковской системы - состояние и динамика экономики страны, регионов и ее основных составляющих. В качестве субъектов банковского мониторинга выступают Центральный банк и сами банки, осуществляющие наблюдение за банками-конкурентами на рынке банковских услуг, за тенденциями развития экономики региона, кредитоспособностью населения и т.п.

В теоретическом плане банковский мониторинг представляет собой самостоятельную аналитико-прогностическую информационную подсистему управления, создаваемую отдельными банками в целях обеспечения финансовой устойчивости и совершенствования банковской системы и ее элементов посредством регулирования и планирования развития отдельных банков и их совокупности.

На практике сложились предпосылки и все основания для формирования рационально организованной системы и механизма комплексного мониторинга рисков банковского сектора, которые позволят создать единую информационную базу для оценки, анализа и прогноза потенциальной уязвимости банковского сектора. Банковская система постоянно меняется, развивается, особенно серьезные сдвиги происходят после кризисов, поэтому система и механизм формирования мониторинга банковских рисков должны быть динамичными, адаптирующимися под новые условия, а главное - они должны быть комплексными.

TURIZM SOHASIDA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Z.A.Qayimova – BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o'qituvchisi

Mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'rni va roli g'oyat sezilarli bo'lib, bunda turizmning ahamiyati boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga qaraganda yuqori sur'atlar darajasida rivojlanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda.

Turizm sohasi tuzilmasi to'g'risidagi marketing tadqiqotlari turistik xizmatlar sifatiga qo'yiladigan talablarni aniqlashga yordam beradi va ularda ta'kidlanishicha, turizm sohasidagi kasbhunar ta'limi diversifikatsiyalangan pedagogik tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. SHu bilan birga, zamonaviy sharoitlarda turizm har qanday mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun nihoyatda muhimdir. Hozirgi vaqtda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng yirik, eng daromadli va jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir.

Yurtimizda turizm sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PQ-2666- qarori bilan “Turizm sohasida

kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish respublika markazi” Davlat unitar korxonasi tashkil etilgan. “TSKTva MORM” DUKning asosiy vazifalari quyidachiga:

- turizm sohasida xizmat ko`rsatuvchi xodimlar, gid-ekskursovodlar, turizm korxonalari rahbarlari uchun har yil seminar-treninglar o`tkazish;
- belgilangan tartibda o`z turistik firmalarini ochmoqchi bo`lgan korxonalariga sohaviy konsultatsiya berish;
- turizm bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tashkilotlarni zamonaviy o`quv uslublari va darsliklari bilan o`qitishni ta`minlovchi materiallarni ishlab chiqish;
- milliy an`ana va urf odatlar, yangi turistik ob`ektlar bo`yicha tavsiyanomalar va ishlanmalar tashkillashtirish;
- gid-ekskursovodlarning “Portfeli” uchun broshyuralar, bukletlar, zaruriy metodik adabiyotlar, ekskursion matnlar ishlab chiqish;
- yirik turistik kompaniyalar, mehmonxonalar, restoranlar, xorijiy hamkorlar va investorlar bilan birga amaliy seminarlar tashkil qilish;
- respublika tarixiy-madaniy salohiyatidan maksimal foydalangan holda marshrutlar va ekskursiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
- respublika ekskursovodlari va gid-tarjimonlari bankini shakllantirish va uni muntazam yangilab turish;
- sayyohlarga xizmat ko`rsatish darajasini oshirish bo`yicha dasturlar va ishlanmalarni yaratish hamda amalga tatbiq etish;

• xalqaro turizm sohasida xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar bilan fikr almashish va ma`lumot olish. [6]
Tez o`zgarib turuvchi mehnat bozori talablarini e`tiborga olingan holda 2020 yilning 10 iyul` kuni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida “Turizm sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to`g`risida”gi nizom ishlab chiqildi.

Ushbu nizomning maqsadi sifatida yuqori darajadagi kasbiy faoliyatni ta`minlash uchun zarur bo`lgan kasbiy bilimlar, ko`nikma va qobiliyatlarni olish hamda doimiy yangilash, kasb standartlari va ta`lim dasturlari asosida kasbiy mahoratni tizimli rivojlantirishga ko`maklashish keltirilgan. Qayta tayyorlash va malaka oshirishning vazifalari sifatida esa quyidagilar belgilangan:

- funktsional majburiyat va vakolatlarning samarali bajarilishini ta`minlash uchun zarur bo`lgan darajada mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning bilim, ko`nikma va qobiliyatlarini uzluksiz yangilash mexanizmlarini joriy qilish;
- milliy iqtisodiyot, turizm sohasi, hududlardagi va umuman respublikadagi haqiqiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi tarkibini optimallashtirish;
- qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda bilvosita shakllarini amaliyotga joriy etish va ularning natijalarini monitoring qilish;
- turizm bozori rivojlanishining hozirgi yo`nalishlarini e`tiborga olgan holda, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini o`quv-uslubiy, axborot hamda moddiy-texnik jihatdan ta`minlash va uni takomillashtirish;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining yanada rivojlanishi hamda modernizatsiyasini ta`minlash[1].

Eng rivojlangan mamlakatlarda turizm rivojlanishining marketing tahlili shuni ko`rsatadiki, so`nggi yillarda u nafaqat jahon iqtisodiyotidagi eng yirik, balki eng dinamik sohaga aylandi. 1987 yildan hozirgi kungacha uning yillik o`sish sur`ati o`rtacha 14,8 foizni tashkil etdi, boshqa tarmoqlarda esa 8,8 foizni tashkil etdi. So`nggi o`n yilliklarda turistik xizmatlarga iste`molchilarning doimiy ravishda yuqori talablari mavjud bo`lib, ular umumiy iqtisodiy vaziyatdagi noqulay o`zgarishlarga etarlicha chidamli. Bashoratli hisob-kitoblarga ko`ra, turizm rivojlanishining yuqori dinamikasi uni kelajakda jahon iqtisodiy rivojlanishini belgilaydigan tarmoqlar toifasiga kiritadi [2].

Turistik mahsulot sifatini unga bo`lgan ehtiyojni qanchalik yuqori darajada qondira olish amaliyoti ko`rsatib beradi. Turistik mahsulot sifati xizmatlarning sifati va xizmat ko`rsatish madaniyati bilan tavsiflanadi.

Turistik xizmatlar sifatiga qo`yiladigan majburiy talablar:

- hayot va sog`liq xavfsizligi;
- kelishuvga muvofiq xizmatlar ko`rsatish kafolati;

- sayyohlar va diqqatga sazovor joylar mulklari xavfsizligi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish.

Shu bilan birga, sifat mezonlari turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha har xil faoliyat turlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, turizm sohasida ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'pchiligi ushbu sohada ishlaydigan mutaxassislarining bilimlari va turli darajadagi boshqaruv ko'nikmalarining universalligini ham talab qiladi: animatordan tortib mehmonxona majmuasi yoki transport kompaniyasining boshlig'igacha. Shuning uchun, turizm biznesi rivojlanib borgan sari, eng katta ehtiyoj, hech bo'lmaganda so'nggi o'n yillikda, turizm sohasi uchun iqtisodiyot va menejment bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda paydo bo'ladi.

Turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyati quyidagicha:

- kompaniya rahbari etakchilik xususiyatlari, rahbarlik turlari va uslublarini bilishi kerak;
- ma'lum ishbilarmonlik va shaxsiy (psixofizik va ahloqiy) fazilatlariga ega bo'lish; – boshqaruv funksiyalaridan foydalanishni bilish (rejalashtirish, tanlash, o'qitish, nazorat qilish, xodimlarni boshqarish va boshqalar);
- qonunchilik bazasi to'g'risidagi bilimlarni qo'llash. Menejer va marketolog turizm sohasini yaxshi bilishi va to'g'ri orientatsiya ola bilishi lozim;
- bozorni, turistik mahsulotni o'tkazish tartibini bilishi, odamlar bilan ishlashi, o'zi va boshqa odamlarning harakatlarini baholay olishi kerak [3].

Shunday qilib, zamonaviy sayyohlik sohasi mutaxassisiga qo'yiladigan talablar, avvalambor, yuqori professionallik va malakani talab qiladi. Ba'zida nazariyotchi va amaliyotchilar ushbu tushunchalarni turlicha qabul qilishadi. Bir holatda u yuqori malakali mutaxassis, boshqasida u yaxshi tashkilotchi. Har doim birinchi o'rinda mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ijodiy fikrlash, oqilona tavakkal qilishga tayyorlik qo'yiladi. Qo'shimcha ravishda – rahbarning kasbiy fazilatlarini bilan bir qatorda, o'ziga va boshqalarga nisbatan qat'iyli, yuqori darajadagi umumiy hamda boshqaruv madaniyati bo'lishi lozim.

Turizm sohasida menejment ishini tashkil etish, rahbarini o'ziga xos xususiyatlarni shakllantirishga undaydi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moslashuvchan mobillik – faoliyatning ijodiy shakllariga moyillik, bilimning chuqurligi, tashabbuskorlik, sifatli o'zgarishlarga intilish, yangiliklarga intilish va h.k.;
- aloqa – muloqotga kirishish, odamlarga qiziqish, odamlarni o'ziga jalb qilish qobiliyati, ziddiyatli vaziyatni hal qilish qobiliyati;
- stressga chidamlilik – muammoli vaziyatlarda intellektual va hissiy xavfsizlik;
- dinamizm – ambitsiya, etakchilikka intilish [4].

Kelajakdagi amalga oshishi mumkin bo'lgan stsenariylardan qat'i nazar turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jihatidan muqarrar tendentsiyalar mavjud. Jumladan:

- universitetlar va xususan, turizm universitetlari o'rtasida global raqobatning kuchayishi, o'zlarining ta'lim mahsulotlarini boshqalarnikidan qaysidir jihatlardan ajralib turishini va yanada raqobatbardosh bo'lishini talab etadi;
- raqamli inqilob va globallashtirish an'anaviy mehnat bozorlari va bandlikka yanada kuchli ta'sir qiladi;
- raqamli inqilob malakali kadrlar tayyorlash uslubini ham o'zgartirishi mumkin [5].

Shunday qilib, yaqin bir necha o'n yilliklarda turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash jarayoni ko'plab muammoga duch kelishi mumkin. Shu jumladan, malaka talablari tez o'zgarib turuvchi mehnat bozorida raqobatbardosh hamda raqamli inqiloblarga tezda moslashuvchi kadrlarni etishtirish jihatdan yangicha yondashuvlar talab etiladi. Bunda ko'proq aralash o'qitish uslublari, nazariya va amaliyotni chambarchasbog'lash va kadrlar tayyorlash jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish.

Xizmat ko'rsatish sohalarida kadrlar salohiyati muhim rol o'ynaydi. SHu sababdan turizm sektorida ham malakali mutaxassislar tayyorlash davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblangani sababli, bu sohada tez o'zgarib boruvchi mehnat bozori talablarini qondirish uchun kerakli chora-tadbirlar ko'rilgan. Turistik mahsulot sifat mezonlarini ko'rib chiqilganida, unda bu sohada ish yurituvchi kadrlar salohiyati qanchalik muhim ekanligi namoyon bo'ldi. Shu sababli, ularga kerakli bo'lgan malaka va ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqildi. Shu bilan bir qatorda globallashtirish jarayonlarida raqobatbardosh kadr bo'la olish uchun raqamli inqilobga tayyor bo'lish zarur.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 10 iyuldagi qarori.: <https://lex.uz/ru/docs/-4930291#-4936706>

sohasining rivojlanishi, o'z o'rnida, ko'pgina unga muvofiq xizmatlarni keltirib chiqaradi. Bunday xizmatlarni o'z tarkibiga oladigan korxonalarni boshqara oladigan menejerlar kerak bo'ladi.

Xususan, Buxoro Davlat Universiteti tarkibidagi San'atshunoslik fakultetiga qarashli Musiqa ta'limi kafedrasidagi "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi xuddi shunday xodimlarni tayyorlab beradi.

Mazkur yo'nalish Buxoro Davlat Universitetida 2019-2020 o'quv yilidan o'z faoliyatini boshladi va 2019-2020 o'quv yilida qabul kvotasi bo'yicha 20 nafar talaba o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 2020-2021 yil o'quv yilida esa bu ko'rsatkich 50 taga yetkazilgan va qo'shimcha to'lov-shartnoma asosida qabul qilinganlar bilan birgalikda hozirda 72 nafar talaba-yoshlar tahsil olmoqda.

Fikrimiz davomida madaniyat va san'at sohasi menejeri xususida gap borar ekan, avvallo," menejer" terminiga ta'rif berib o'tsak.

Ayrim manbalarda, "Menejer - bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis"- deb ta'rif beriladi. Menejerlar bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tashkilotlarda ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqaruvchi shaxs hisoblanadi va o'z o'rnida menejer bir necha talablarga ham javob bera oladigan shaxs bo'lishi lozim.

Finnmark saunasining tarkib menejeri Robin Tompson bu haqida – "Menejer tez-tez yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi kerak"⁵²- deya ta'rif beradi.

Menejer lavozimida faoliyat yuritib borayotgan shaxs nafaqat o'z harakatlari uchun, balki boshqarayotgan tashkilot kelajagi uchun ham javob berishini hisobga olgan holda "menejer" shaxsi alohida xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Ular quyidagilar:

- Moslashuvchanlik, ya'ni raqamli dunyo o'zgarishi sharoitida menejerning yangiliklarga va har qanday vaziyatga doimiy moslashib borishi;

- Muammoni hal qilish – har qanday muammoni oldindan ko'ra bilish va kerakli yechimlarni topish;

- Vaqtni boshqarish – bajarilishi kerak bo'lgan vazifa uchun qancha vaqt kerakligini hisobga olish, vaqtni samarali taqsimlash;

- Tashkilotchilik qobiliyatiga xodimlarni tanlay olish va ularni unumli mehnat qilishini ta'minlash;

- Rejalashtirish – strategik mutafakkir sifatida barcha vazifalarni reja asosida amalga oshirish;

- Yetakchilik- turli psixologiyaga ega bo'lgan odamlar bilan ishlash va ularni birlashtirish;

- Innovator – axborot asri davrida yangilanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda yangi innovatsion g'oyalarni kirita olish.

Madaniy-ma'rifiy soha menejerining faoliyati inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega. Menejerning asosiy vazifalaridan biri, o'z faoliyatini kundalik hayot va mustaqillik davri vazifalari bilan uzviy bog'lashdir. Qachonki, u hayot muammolaridan, kishilarning ehtiyojlaridan ajralib qolsa, quruq safsatabozga aylanadi. Madaniyat sohasi menejeriga muntazam ravishda izlanishlar olib borish va ishga hamma vaqt ijobiy yondashish talabi qo'yiladi. Uning yana bir asosiy faoliyat turi bu - tarbiyaviy faoliyatdir. Bu faoliyat boshqa tarbiyaviy faoliyatlardan yoshi, kasbi, bilim darajasi, qiziqish va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib borilishi bilan farqlanadi.

Bizning fikrimizcha, menejerning kasbiy professional faoliyati o'z mohiyati bilan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish, kishilarning madaniy dam olish, o'z ehtiyojlarini qondirish, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy-foydali faoliyat hisoblanadi.

Yuqoridagi talab hamda xususiyatlarga to'laqonli ega bo'lgan madaniyat sohasi menejeridan o'z o'rnida bo'sh vaqtda o'z bilimlarini boyitishi, qobiliyatlarini o'stirishi, hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun madaniy-ma'rifiy muassasaga keluvchilarga mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatishi ham talab etiladi.

Bundan tashqari, mazkur soha menejeri o'ziga yuklatilgan vazifani to'laqonli bajarishi davomida rivolanib borayotgan jamiyat yangiliklaridan xabardor bo'lgan holda, o'z faoliyatida ulardan unumli foydalana olishi ham ahamiyatga molik masalalaran biri hisoblanadi.

Shunday qilib, mamlakatimizda xalqimiz ongini yuksaltirish, madaniyatni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar beqiyos. Binobarin, jamiyatimizda asosiy rol o'ynaydigan ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilish har bir avlodning burchidir.

Zero, madaniyati yuksak xalqning jahon hamjamiyatida o'rni o'zgacha!

⁵² <https://uz.entwicklungsethnologie.org/great-management-skills-13833>

MUNDARIJA

Д.Ш.Явмутов	Туризм пандемия ва постпандемия шароитида: асосий йўқотишлар ва тикланишнинг истикбол йўналишлари	5
Hamroev H.R.	Saudiya Arabistonining ziyorat turizmni tashkil etish tajribasi tahlili	7
Д.Ш.Явмутов	Худудларнинг табиий ресурсларини туристик-рекреацион баҳолаш масалалари	9
Nurov Z.S.	Ways to develop special types of tourism in Uzbekistan after the pandemic	11
Исомов Б.С.	Роль туризма в развитии экономики страны	13
Jurayev A. T.	Problems and prospects for the development of pilgrim tourism in Uzbekistan	16
Tajibayev Sh. M.		16
Nurova G.N.	Pandemiya dan keyingi sayohat tendensiyalar	19
Рўзиёв С.С.	Пандемиядан кейинги даврда туризм соҳасини ривожлантиришда	
Рўзиёва З.С.	бўш вақт омилининг аҳамияти	21
Musayeva Sh. A.	Presentation of the effectiveness of tourism and hotel services indicators and how to identify them	24
Usmonova D. I.		24
Ибрагимов Н. С.	Модели и новые тенденции процесса формирования туристского потока в Республике Узбекистан	26
Рўзиёв С.С.	Хозирда туризмни ривожлантириш учун ҳал этилиши лозим бўлган	
Элмуродова Р. А.	муаммолар	29
Abdulloev A.J.	Buxoro viloyatida cho'l turizmi klasterini rivojlantirishda logistik tizimlardan foydalanishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	31
Yuldashova N.		31
Хидирова Г.Р.	Туристтик худудларни ижтимоий-иқтисодий тартибда хорижий мамлакатлар тажрибасини қўллаш имкониятлари	34
Олтаев Ш.С.	Пандемия шароитида тўловсизлик билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишнинг инновацион йўллари	35
Азимов О.Ф.	Бухоро вилоятида ички туризмни ривожлантириш механизмларининг замонавий тенденциялари ва моделлари	38
Farmanov E.A.	Turizm da transport infratuzilmasini takomillashtirish yo'llarini belgilashda amaliy tadqiqot natijalari (buxoro viloyati misolida)	40
Матякубов У.Р.	Оролбўйи минтақаси туризм бизнеси корхоналарига Covid -19 Коронавирус пандемиясининг таъсири	48
Мирзаев А.Т.	Пандемиядан кейинги даврда туристик-рекреация фаолиятини ривожлантириш ва рақобатбардошлигини оширишнинг услубий жиҳатлари	51
Зиявитдинов Х.	Организация деятельности предоставления услуг предприятиями питания в туризме	56
Навруз-зода Ш.Б.	Ёшлар туризмни пандемиядан кейинги даврда ривожлантириш истикболлари	59
Davronov I.O.	Improvement of service quality for tourism and hotel development after pandemic in region	61
Davronov I.O.	Priorities for improving the quality of hotel services through innovative development after the pandemic	65
Ro`ziyeva G.F.	Milliy hunarmandchilik-xorijiy sayyohlar nigohida	68
Ro`ziyeva G.F.	Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda raqamli xaritalarning roli	70
Сайфуллоев О.О.	Ўзбекистонда агротуризм – асосий муаммолар, хусусиятлар ва ислохотлар зарурияти	71
Xalliyeva N.	Pandemiya oqibatida butunjahon va O'zbekiston turizm sohasida yuzaga kelgan holat: muammo va yechimlar	74
Sharifova Sh.Sh.	Turizm da halol standartlarini joriy etish	76
Murodov H.S.	Buxoro turizmi rivojida sanatoriya – kurort muassasalari o'рни	79
Хамроев Ш.	Принципы банковского мониторинга	80
Qayimova Z.A.	Turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	81